



XUDUDIY ETNOMADANIYAT VA XALQ RAQSI

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Sahna harakati va jismoniy madaniyat” kafedrası

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har bir millatning o‘z etnik kelib chiqish tarixi, xalq raqslarning ildizi, ilk kelib chiqish sarchashmalari, mintaqaviy kundalik turmush tarzi, mehnat jarayoni, turli bayramlar va marosimlari va ularning geografik, tarixiy va ijtimoiy sharoitlari ta’siri ostida rivojlanib har bir xalqning ijro uslubi hamda o‘ziga xosligini ifodalab, asosan musiqa bilan uzviy bog‘liq xolda takomillashgani haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq raqsi, marosim, harakat, tarixiy, xalq, madaniyat, raqs.*

Har bir davrning o‘ziga xos jihatlari xalqning badiiy ijodida hamda raqslarida aks etadi. Chunki, unda, donolik va qahramonlik, quvonch va qayg‘u, g‘alaba va mag‘lubiyat, kundalik hayot, urf-odatlar va baxtli kelajakka bo‘lgan ishonch aks ettirilgan. Shuning uchun qadim zamonlardan beri raqslar insonni butun hayoti davomida hamrohlik qilgan. Natijada, har bir xalq o‘z raqs an‘analarini, uning atamalarini maxsus harakatlarini maqsadga muvofiq ishlab chiqqan. Bu kabi mavzuga oid uyg‘unlashtirilish, harakat va musiqa o‘rtasidagi bog‘liq jihatlarni namuna darajasiga keltiradi.

Hududiy etnomadaniyatni namoyish etishning eng yorqin va o‘ziga xos shakli raqsdir, chunki, unda xatti-harakatlar orqali o‘zaro munosabatlar, odob-axloq normalari, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi har qanday o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi. Hududiy etnomadaniyat va xalq raqsi – jamoaviy ijod natijasi, xalq tarixi bilan mavjudir.

Hududiy rivoj jarayonida xalq raqsi juda ko‘p o‘zgarishlarga uchraydi. Ular insonlarning fe‘l-atvori, hayot tarzi va ishlab chiqarishdagi madaniyatga qarab folklor (xalq raqsi) doirasidagi raqslarga xamda maxsus professional raqslarga ajratilgan. Ular geografik, tarixiy va ijtimoiy sharoitlari ta’siri ostida rivojlanib har bir xalqning ijro uslubi hamda o‘ziga xosligini ifodalab, asosan musiqa bilan uzviy bog‘liq xolda takomillashgan.

Xalqlardagi dexqonchilik bilan shug‘illanadigan odamlarning orasida keng tarqalgan topinish bu - o‘ldiradigan va tiriltiradigan, har xil nomlar bilan nomlangan, yil vaqtlarining almashishi ramzi bo‘lib hizmat qilgan, tabiatni qishda quritadigan va bahorda tiriltiradigan – Xudoga bo‘lgan. Ibtidoiy odamlar fasllarning almashinuvida borliqni boshqaruvchi ilohiy kuch borligiga qattiq e‘tiqod qiladilar. Tabiat hodisalari: momoqaldiroq, olov chiqishi sel va toshqin kabilar ham yaratuvchi tomonidan kelayotgan ofatlarligini anglab, ularni daf qilishini so‘rovchi turli raqslar, ma‘nodor harakatlar, sig‘inishni anglatuvchi xatti-harakatlar yuzaga kela boshlaydi. Bundan ayon bo‘ladiki, ibtidoiy jamiyat davrida odamlar turli hayvonlar, tabiat hodisalari va



ruhlarning tiplarini yaratib, ularga topinib kelganlar. Bu topinish marosimlari teatrlashtirilgan ko‘rinishlarda ifodalangan. Yuzlariga niqoblar kiyilgan, qora va qizil ranglar bilan bo‘yalgan kishilar o‘zlarini turli pantomimik raqslari orqali voqea ya’ni ov jarayonini, xursandchilik marosimlarini nishonlashgan.

San’at xamisha xayot va davrning aksi. Bu o‘z navbatida, davrga monand bir ipga marjonday shodalangan, ko‘z ochib yumguncha o‘tadigan laxzalar moxiyatini aniq belgilaydigan shakllarni qidirib topishi demakdir.

Xitoy, Hindiston va Sharqning boshqa mamlakatlarida musiqa, raqs va pantomik marosimiy raqslar qadimgi davrlardan buyon keng tarqalgan. Keyinchalik, raqs, xalqning bayramlari, festivallar va xalq tomoshalarining ajralmas qismiga aylandi. Xalq marosimlarida, avval xorovod va marosim raqslari shakllandi. Keyinchalik, marosim harakatlaridan uzoqlashib, xalq raqslari kundalik hayotning yangi xususiyatlarini ifodalovchi yangi mazmun bilan to‘ldirildi. Ov yoki chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqlar hayvonot dunyosini kuzatishlari natijasini raqslarida uyg‘unlashtirdi. Hayvonlar, qushlar, uy hayvonlarining xarakteri va odatlari majoziy ma’noda (obrazno) va ifodali tarzda raqslarda aks etgan. Masalan shimoliy amerika xindularida “Bizon” raqsi, Indoneziyada “Penchak” (yo‘lbars) raqsi, Yakutiya “Ayiqlik” raqsi, Pomirda “Burgut” raqsi, Finlarda “Buqa raqsi, rus halqida “Juravel” va “Gusachok” raqsi, Norvejlarda “Xurozlar jangi” raqslari mavjud.

Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan halqlarda esa mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi raqslar rivojlandi. Masalan, Latviyada “Jnetsov” raqsi, Belorussiyada “Lyanok”, Moldovada “Poama” (uzum) raqsi, O‘zbeklarda “Paxta” va “Pilla” raqslari, Gusulda “O‘tinchilar” raqsi borligi ma’lum.

Folklor tarkibidagi xalq raqslar birinchi navbatda ijrochining his-tuyg‘ulari, kayfiyati, ritm va plastikada namoyon bo‘lishidir. Folklor raqsi xudud yoki mintaqaning o‘ziga xos an‘analaridan kelib chiqqan ijrodir. Shuning uchun folklor raqsi paydo bo‘lgan xududda avloddan-avlodga o‘tib boradi. Uning kelib chiqishi deyarli har doim qishloq turmush tarzi bilan bog‘liq. Ular tarixiy jihatdagi farqlariga qaramay, turli mamlakatlarning folklor raqslari harakatlarining ijro uslubi va tuzilishida umumiylik bor.

Raqslarning bir-biridan farq qilishi asosan geografik joylashuviga ham bog‘liq. Masalan, bitta mamlakatdagi tog‘liklarning raqslari, o‘sha mamlakatning tekisliklarida yashaydigan aholisining raqslariga qaraganda, farq qiladi. Buning sababi geografik sharoit o‘ziga xos an‘analarni aholining folklorida saqlaydi va takomillashtiradi.

“O‘zi uchun ijro etilayotgan” halq raqsida ijrochining aniq holati aks etadi. Unda xalqning badiiy tafakurini aks ettiruvchi raqslar namoyon bo‘ladi, ya’ni, har bir raqsda - “butun xalq” ning xususiyati aks etadi. U ayni paytda, ijrochining aniq ruhiy holatini, kayfiyatini ham ifodalaydi. Natijada, xalq raqslarida shaxs va xalq uyg‘unlashib ketadi.

Har bir millatning o‘z etnik kelib chiqish tarixi bor. Folklor raqslarning ildizi aynan millat shakllanishiga borib taqaladi. O‘zbek xalq raqsining ilk kelib chiqish sarchashmalari, juda qadim zamonlardan buyon avlodlarning hududiy kundalik turmush tarzi, mehnat jarayoni, turli bayramlar va marosimlarda namoyon bo‘lib kelayotgan



serqirra ijodlariga borib taqaladi. Chunki, xalqning turmush tarzi va bajarayotgan mehnat jarayoni qanday bo'lishidan qat'iy nazar, uning ko'ngli doim mehr hamda orzu ohanglari bilan to'lib toshgan.

X–XV asr arab tilidagi musiqa risolalarida raqs san'atida qo'llaniladigan asosiy cholg'ular urma musiqa cholg'ulari ekani yozilgani haqida gap ketganda, raqs san'atining ba'zi turlari ham keltirib o'tiladi.

Shunday qilib, X-XV asrlar - Sharq musiqashunosligining mumtoz davrida nazariy-mantiqiy jihatdan o'zbek raqs san'atining uzoq o'tmishini, tarixini o'rganish va bu san'at falsafasini ochishga harakat qilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Zayla, Abu Abdulloh Xorazmiy hamda Imom G'azzoliy, Mavlono Jaloliddin Rumiy va boshqa ulamolimiz asarlarida nafaqat zamonaviy musiqa va raqs san'atining yanada go'zallashuvi balki ijod dunyolarini tug'ri idrok etish va xizmatlarini to'liq anglashda ham manfaatli xizmat qiladi.

Islom dinini qabul qilgan o'zbek halqining m'naviy hayotida musiqa o'z ahamiyatini yo'qotmadi, balki yangi ma'no kasb etgan holda ravnaq topdi. Shu jumladan, ayollarning cholg'u ijrochiligi, xonishlari va raqs tushishlari ta'qiqlab qo'yilmagan bo'lmasa-da, ammo o'ziga xos shakl ("ichkari") da rivojlandi, xotin-qizlar davrasida o'tkazilgan turli tadbirlar hamda marosimlarda namoyish etilishi udum bo'ldi. Bunday davralarda ba'zan xayot mashaqqatlari va turmush tashvishlari ham "tilga olingan". Lekin hayo va iboda doim go'zal o'zbek ayollari har qanday qiyinchilik oldida darhol tushkunlikka tushmay, balki, uni oqilona yengish choralari izlaganlar, bu yo'lda bir-birlariga madad bo'lib, zarur bo'lganda iste'dodlarini ham ayamaganlar. Chunki, o'zbek ayollari orasida yuksak mahoratli shoiralar, xonandalar, raqqosalar, qiziqchilar ham bo'lganlar.

Shuningdek, saroyda bo'lgan bazmlarda, shuningdek, turli bayram va to'ylarda Xonzoda Bulbul, Siyahcha, Mohchuchuk va Sharofatxon ismli ayol san'atkorlar ham qatnashib, doyra chertish, kuylash, raqsga tushish san'atlaridan voqif bo'lganliklari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Demak, xalq raqsi ijrochilari g'oyat ravshan va aniq bo'lib, uning ifodaviyligi milliy an'ana va urf-odat ildizlari bilan tutashgan xolda, halqning butun jonli tafakkuri tarixi bilan bog'liq tarzda rivojlangan. Shu bilan bir qatorda, halq raqslari uning turmush tarzini o'ziga xos badiiy ifodalar bilan aks ettirar ekan, u milliy madaniyatning tomonlarini, davrning ruhini, xayot ma'romini, suratini hamda mazmunga boy voqealarini o'zida qamrab olgan.

Xulosa o'rnida bugungi raqs asosi dunyo xalqlarining etnik kelib chiqish tarixi va xalq raqsining shakllanishiga borib taqaladi. Xalq raqsining zahiralari, asosiy va eng muhim turlari, ijrochilarni birlashtirib turuvchi bayram tadbirlarda ijro etilgan raqslarda saqlanib qoldi. Ijro etiladigan raqslar, xalq ruhini, etno madaniy rivojini ifoda etib rivojlanib bordi. Bizgacha yetib kelgan raqs xazinasi ko'p tarixiy, tadrijiy bosqichlarni bosib o'tib, o'zbek halq og'zaki ijrolari tarkibida folklor raqslari va an'anaviy xoreografiyaning alohida, o'ziga xos o'rni borligini ko'rsatib bera oldi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baglay V.YE. Etnicheskaya xoreografiya narodov mira. Rostov n\D, izd-vo Feniks, 2007. –S.12
2. Baxta I.G.Uzbekskiy tanets «Katta uyun». 2.Vvedeniye. Kratkiye svedeniya ob uzbekskom tanse. T(B).B30,№247.
3. Rahmonov M. O‘zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. -T.: Fan. 1975. –43b
4. Folklor i etnografiya svyazi folkloru s drevnimi predstavneniyami i obryadami, Leningrad. Izdatesstvo “Nauka”, 1972.–C.107.
5. Qodirov M. Yallachilar san’ati. — T.: “San’at” jurnali. 2008. №3-4. –37b.